

## MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA YANGI INNOVATSION YONDASHUVLAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING JAMO'A BO'LIB KUYLASH FAOLIYATINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

*Toshmatov G'ulomjon Olimjonovich,*

*Namangan davlat pedagogika instituti, ART pedagogika kafedrası v.b dotsenti*

*Musiqá ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

*Toshtillayeva Rayxona Mirzohid qizi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada musiqá madaniyati darslarida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash faoliyatini shakllantirish masalalari yoritilgan. Maqolada zamonaviy ta'lim tamoyillari asosida musiqiy tarbiya jarayonini takomillashtirish, o'quvchilarning estetik dunyoqarashini rivojlantirish, ularning ijodiy salohiyatini ochib berishda yangi yondashuvlarning o'rnini va ahamiyati tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada xor mashg'ulotlarini innovatsion metodlar yordamida tashkil etish, o'quvchilar orasida musiqiy jamoaviylik ruhini shakllantirish va o'qituvchi faoliyatida yangi texnologiyalardan foydalanish tajribasi asosida ilmiy xulosalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Musiqá madaniyati, innovatsion yondashuv, xor mashg'ulotlari, jamoaviy kuylash, kreativ faoliyat, pedagogik texnologiya, raqamli ta'lim.

## TECHNOLOGIES FOR FORMING STUDENTS' GROUP SINGING ACTIVITY BASED ON NEW INNOVATIVE APPROACHES IN MUSIC CULTURE LESSONS

**Annotation.** This scientific article covers the issues of forming students' group singing activity through the use of innovative pedagogical technologies in music culture lessons. The article analyzes the role and importance of new approaches in improving the process of musical education based on modern educational principles, developing students' aesthetic outlook, and revealing their creative potential. The article also provides scientific conclusions based on the experience of organizing choir classes using innovative methods, forming a spirit of musical teamwork among students, and using new technologies in teacher activities.

**Keywords:** Music culture, innovative approach, choir classes, group singing, creative activity, pedagogical technology, digital education.

## ТЕХНОЛОГИИ ФОРМИРОВАНИЯ ГРУППОВОЙ ПЕВЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧАЩИХСЯ НА ОСНОВЕ НОВЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ НА УРОКАХ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ

**Аннотация.** В данной научной статье рассматриваются вопросы формирования групповой певческой деятельности учащихся посредством

*использования инновационных педагогических технологий на уроках музыкальной культуры. В статье анализируются роль и значение новых подходов в совершенствовании процесса музыкального образования на основе современных образовательных принципов, развитии эстетического мировоззрения учащихся и раскрытии их творческого потенциала. В статье также представлены научные выводы, основанные на опыте организации занятий хоровым искусством с использованием инновационных методов, формировании у учащихся духа музыкального коллективизма и использовании новых технологий в педагогической деятельности.*

**Ключевые слова:** Музыкальная культура, инновационный подход, занятия хоровым искусством, групповое пение, творческая деятельность, педагогические технологии, цифровое образование.

## KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida har bir fan sohasida, ayniqsa, musiqa ta'limida innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarurati tobora ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" tamoyili asosida har bir o'quv fanini zamon talablariga mos tarzda tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish va jamoaviy hamkorlikda ishlash malakasini shakllantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy ta'lim tizimining asosiy maqsadi - o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kommunikativ va jamoaviy faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bugungi kunda ta'lim jarayonlarida innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash, ayniqsa musiqa madaniyati darslarida, o'quvchilarning badiiy-estetik dunyoqarashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqa madaniyati darslari orqali o'quvchilarda nafaqat ijro mahorati, balki jamoada ishlash, bir-birini tinglash, muvofiqlikda harakat qilish va estetik zavq olish kabi ijtimoiy-psixologik fazilatlar shakllanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Maktab ta'limini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da ham ta'lim tizimiga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, o'quvchilarning kreativ va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish kabi masalalar belgilab berilgan. Shu nuqtayi nazardan, musiqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlarni joriy

etish o'quvchilarning musiqiy tafakkurini kengaytiradi, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalaydi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Musiqqa ta'limi jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyati haqida ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotlar olib borilgan. O'zbekiston olimlaridan A. Rasulov, N. Xolmatova, G. Mardonova, M. To'xtasinova va boshqalarning ishlarida musiqqa madaniyati darslarining metodik tizimi, musiqiy qobiliyatni rivojlantirish hamda darslarda interfaol metodlardan foydalanish yo'llari keng yoritilgan.

Masalan, A. Rasulov (2021) o'zining "Musiqqa ta'limi metodikasi" nomli asarida musiqqa darslarini tashkil etishda o'quvchilarning jamoaviy ijrochilik malakalarini bosqichma-bosqich shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi. N. Xolmatova (2020) esa "Musiqqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlar" nomli ishida o'quvchilarning musiqiy qiziqishini oshirish uchun AKT, multimedia, audio-vizual materiallardan samarali foydalanish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Xorijiy manbalar orasida K. Orff, Z. Kodaly, E. J. Gordon va D. Elliottlarning asarlari alohida e'tiborga loyiq. K. Orff o'zining "Music for Children" tizimi orqali har bir bolada tabiiy musiqiylikni ochish mumkinligini, buni esa jamoaviy o'yinlar, qo'shiqlar va ritmik harakatlar orqali amalga oshirish kerakligini ta'kidlagan. Z. Kodaly esa musiqiy eshituvni rivojlantirishda xor san'ati va jamoaviy kuylashning o'rne beqiyos ekanini asoslab bergan.

Ushbu manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, jamoaviy kuylash jarayoni — bu shunchaki musiqqa o'rganish emas, balki pedagogik, psixologik, estetik va ijtimoiy omillarni o'zida mujassamlashtirgan murakkab ta'limiy jarayondir. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oldi: mavjud adabiyotlar tahlili, tajriba-sinov ishlari, o'quvchilarning jamoaviy ijro faoliyatini kuzatish va tahlil qilish, so'rovnoma o'tkazish, hamda musiqiy faoliyat jarayonida psixologik omillarni baholash. Tadqiqot jarayonida kommunikativ, tizimli, faoliyatga asoslangan yondashuvlar hamda differensial ta'lim tamoyillari asos qilib olindi.

### **NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Musiqqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlarning mohiyati. Hozirgi davrda "Innovatsion texnologiya" tushunchasi ta'lim jarayonining ajralmas

qismiga aylanib bormoqda. Musiqa fanida bu tushuncha o'quv jarayonini kreativ, interfaol va texnologik yondashuvlar asosida tashkil etish degan ma'noni bildiradi.

An'anaviy musiqa darslarida o'quvchi ko'proq tinglovchi rovida bo'lgan bo'lsa, innovatsion darslarda u faol ishtirokchi, ijodkor va hamkor sifatida qatnashadi. O'quvchi endilikda qo'shiqni yodlab kuylash bilangina cheklanmay, uning mazmunini anglash, musiqiy ifoda vositalarini tahlil qilish, sahna madaniyatini his etish, jamoaviy uyg'unlikni saqlashga ham o'rganadi.

Innovatsion yondashuvlar quyidagi tamoyillarga tayanadi:

- Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – har bir o'quvchining musiqiy qobiliyatini individual yondashuv asosida rivojlantirish;
- Interfaol ta'lim – o'quvchilarning faol ishtirokini ta'minlovchi o'yin, musobaqa, muhokama, jamoaviy kuylash mashg'ulotlarini o'tkazish;
- Integratsiya – musiqa fanini adabiyot, san'at, tarix, texnologiya fanlari bilan uyg'unlashtirish;
- Ijodkorlik va refleksiya – o'quvchilarning ijodiy ifodasi va o'z-o'zini tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish.

Bularning barchasi musiqa darslarining samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning jamoaviy ruhini, madaniyatini, o'zaro muloqotini mustahkamlaydi.

Jamoaviy kuylash faoliyatining psixologik-pedagogik asoslari shundan ibortaki,

**jamoa bo'lib kuylash** — bu o'quvchilarning musiqiy va ijtimoiy rivojlanishida eng muhim shakllardan biridir. Chunki bu jarayonda o'quvchi nafaqat o'z ovozi, balki boshqalarning ijrosini ham eshitadi, ritm, dinamika va intonatsiyada uyg'unlikni saqlaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, jamoaviy kuylash o'quvchida quyidagi sifatlarni shakllantiradi:

- o'ziga ishonch va sahna madaniyati;
- emotsional ifoda va estetik did;
- jamoaga moslashuv va mas'uliyat hissi;
- o'zaro yordam, muloqot va hamkorlik madaniyati.

Pedagogik nuqtai nazardan esa, jamoaviy kuylash – o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ijodiy hamkorlik jarayonidir. O'qituvchi bu jarayonda nafaqat rahbar, balki musiqiy jarayonni tashkil etuvchi, motivatsiya beruvchi va yo'naltiruvchi rolni bajaradi.

**Jamoaviy kuylash** — bu o'quvchilarning musiqiy-ijodiy hamkorlik faoliyatini rivojlantiruvchi, ularni o'zaro muvofiqlikka, tinglash madaniyatiga va bir-birini hurmat qilishga o'rgatuvchi samarali pedagogik jarayondir. Jamoaviy kuylash orqali o'quvchilar o'z ovozlari boshqalar bilan uyg'unlashtirishni, ritmik intizomni saqlashni va musiqiy ifoda vositalarini amaliy o'zlashtirishni o'rganadilar.

Zamonaviy ta'limda bunday jarayonni tashkil etish an'anaviy "xor" shaklidagi mashg'ulotlardan farq qiladi. Bugungi kunda jamoaviy kuylashni tashkil etish uchun quyidagi **innovatsion usullar** o'z samarasini bermoqda:

**Jamoaviy kuylashda interfaol metodlardan foydalanish.** Musiqa madaniyati darslarida interfaol metodlar darsning ijodiy, jonli va ishtirokchilik asosida o'tishini ta'minlaydi. Quyidagi metodlar jamoaviy kuylashda eng samarali hisoblanadi:

**"Rol o'ynash" metodi.** O'quvchilar sahna asaridagi qahramonlar rolini ijro etadi, bu esa ularning ifoda, ovoz tembri, ritm va sahna harakati madaniyatini rivojlantiradi.

**"Aqliy hujum".** O'qituvchi yangi qo'shiqni o'rganishdan oldin o'quvchilardan uning mazmuni, kayfiyati, obrazini tasavvur qilishni so'raydi. Bu o'quvchilarda emotsional tayyorgarlik hosil qiladi.

**"Klaster" metodi.** Qo'shiqning asosiy g'oyasi, ohang tuzilishi va obrazlarini klaster shaklida yozish orqali o'quvchilar materialni tizimli tahlil qilishni o'rganadi.

**"Juftlikda kuylash" texnikasi.** Bu usulda o'quvchilar ikki kishilik juftliklarda kuylaydi, bu esa bir-birini tinglash, ovoz uyg'unligini saqlash ko'nikmasini kuchaytiradi.

**"Refleksiya" bosqichi.** Kuylashdan so'ng o'quvchilar o'z ijrolarini baholaydi, kamchiliklarni muhokama qiladi. Bu ularni tanqidiy fikrlashga o'rgatadi.

Tajriba ishlari davomida aniqlanishicha, musiqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib kuylashni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish o'quvchilarda ijobiy

o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Masalan, multimedia taqdimotlari, audio-video yozuvlar, raqamli notalar dasturlari (MuseScore, BandLab, GarageBand) yordamida mashg'ulot o'tkazilgan guruh o'quvchilarining musiqiy idroki, xotira va eshituv ko'nikmalari an'anaviy usulda dars olganlarga nisbatan ancha yuqori bo'ldi.

Bundan tashqari, xor mashg'ulotlarida interaktiv metodlar va usullardan foydalanish o'quvchilarni faol muloqotga chorlaydi. Har bir ishtirokchi o'z hissasini qo'shish, ovoz balandligini, tembrni va ritmni muvofiqlashtirish orqali jamoaviy uyg'unlikni his etadi. Bu esa nafaqat musiqiy, balki ijtimoiy-kommunikativ ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, interaktiv darslar o'tkazilgan sinflarda o'quvchilarning ijodiy faolligi 45 foizdan 80 foizgacha oshgan. O'quvchilar darsdan tashqari vaqtda ham xor mashg'ulotlarida qatnashishga, mustaqil ravishda musiqiy dasturlar bilan ishlashga qiziqish bildirgan. Bu holat innovatsion yondashuvlarning motivatsion ta'sirini tasdiqlaydi.

Shuningdek, darslarda zamonaviy AKT vositalaridan foydalanish - proyektorlar, interaktiv doskalar, raqamli ovoz yozish moslamalari - o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlaydi. O'qituvchi endi faqat bilim manbai emas, balki musiqiy jarayonni tashkil etuvchi va boshqaruvchi moderator rolini bajaradi. O'quvchi esa passiv tinglovchidan faol ijrochiga, ijodiy subyektga aylanadi.

## XULOSA VA TAVSIYALAR

Yuqoridagi natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa madaniyati darslarida innovatsion yondashuvlar asosida o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash faoliyatini shakllantirish nafaqat ularning musiqiy ko'nikmalarini, balki ijtimoiy-emotsional rivojlanishini ham ta'minlaydi. Ushbu jarayon o'z ichiga pedagogik innovatsiyalar, AKT imkoniyatlari, kooperativ o'qitish usullari, reflektiv tahlil hamda integratsion yondashuvlarni oladi.

Avvalo, innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash musiqa ta'limi samaradorligini oshiruvchi muhim omildir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim sohasida ilgari surgan strategik maqsadlariga muvofiq, har bir dars zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirilishi lozim. Shu jihatdan qaraganda, jamoa bo'lib

kuylash mashg'ulotlarini axborot-kommunikatsion texnologiyalar bilan boyitish o'quvchilarda yangicha motivatsiya uyg'otadi. Darsda multimediali vositalardan foydalanish, qo'shiq matni, nota yozuvi, audio yozuv va video tasvirlarni uyg'unlashtirish o'quvchilarning musiqiy tafakkurini rivojlantiradi, eshitish va ijro ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

O'tkazilgan tahlillar asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. Musiqa madaniyati darslarida innovatsion texnologiyalarni joriy etish o'quvchilarning jamoa bo'lib kuylash madaniyatini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi;
2. Interaktiv usullar va raqamli vositalar o'quvchilarning musiqiy idrok, ritm, va ovoz uyg'unligini rivojlantiradi;
3. O'qituvchi faoliyatida metodik yangiliklar va texnologik vositalarni uyg'unlashtirish o'quvchilarda ijodiy fikrlashni kuchaytiradi;
4. Jamoaviy kuylash mashg'ulotlarini ijtimoiy tadbirlar, konsertlar va loyiha ishlari bilan integratsiyalash o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshiradi;
5. Musiqa ta'limida milliy merosni zamonaviy yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish madaniy identifikatsiyani mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, musiqa o'qituvchilariga o'z darslarida raqamli texnologiyalarni qo'llash, interaktiv mashg'ulotlarni rejalashtirish, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini hisobga olish hamda jamoaviy ijrochilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni muntazam takomillashtirib borish tavsiya etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Abdullaeva K. Musiqa ta'limida zamonaviy texnologiyalar. – T.: Fan, 2019.
2. Shomurodova G. Musiqa darslarida innovatsion yondashuvlar. – Samarqand, 2020.
3. Karimova D. Musiqa madaniyati darslarini interaktiv usullar asosida tashkil etish. – T.: TDPU, 2021.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son qarori. "Maktab ta'limini rivojlantirish konsepsiyasi", 2018.
5. Тошматов, Г., & Даминова, Г. (2022). Принципы организации самостоятельного обучения в кредитно-модульной системе. Общество и инновации, 3(5/S), 50-57.
6. Olimjonovich, T. G. (2024). DEVELOPMENT OF KNOWLEDGE OF STUDENTS THROUGH INDEPENDENT STUDY ON THE BASIS OF A SYSTEMATIC APPROACH. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.

7. Gaziyeu, J. J., & Toshmatov, G. O. (2021). Acts credit module system and its implementation activities in higher educational process. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(9), 467-472
8. Toshmatov, G. (2025). YEVROPA ECTS KREDIT-MODUL TIZIMIDA MUSTAQIL TA'LIM VA UNGA O'QITUVCHINING RAHBARLIK FAOLIYATI. Research Focus, 4(3), 81-84.
9. Toshmatov, G. U., & Sharopova, S. D. (2025). MULTIMEDIYA TEXNOLOGIYALARI ORQALI MUSIQA TA'LIMINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH METODUKASI. Universal xalqaro ilmiy jurnal, 2(4.3), 491-493.
10. Toshmatov, G. (2025). KREDIT MODUL TIZMIDA TALABALARNING MUSTAQIL TA'LIM BO'YICHA KREATIV FAOLIYATLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Research Focus, 4(Special Issue 3), 244-252.
11. Olimjonovich, T. G. (2024). Development Of Knowledge Of Students Through Independent Study On The Basis Of A Systematic Approach. Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research, 2(11), 19-24.
12. Syfiddinovich, A. B. (2024). MUSIQA CHOLG'ULARINING ILK SHAKL VA TURLARI. JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH, 7(2), 92-96
13. Botirkhanovich, Shokirkhanov Bakhtiyorxon. "The Structure of Kashkar Rubab, And Methods of Their Execution." CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ARTS AND DESIGN 5.1 (2024): 19-22.
14. Shokirkhonov, B. (2025). REQUIREMENTS FOR ORGANIZING THE WORK OF A CLUB LEADER IN COMPREHENSIVE SCHOOLS. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(3), 91-94.
15. Asrakulova, A. (2025). ANALYSIS OF PHILOSOPHICAL VIEWS IN THE WORKS OF NASIR KHUSRAV. Решение социальных проблем в управлении и экономике, 4(2), 175-179.